

G'AZAL JANRINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARNING SAMARADORLIGI

Sayfiddinova Diyora G'ofurjon qizi

Namangan davlat pedagogika institute 1-kurs magistranti

diyorasayfiddinova28@gmail.com

Tel: +998 97 3707505

Annotatsiya. Mazkur maqolada g'azal janrini o'quvchilarga oson va qiziqarli o'qitishda qo'llaniladigan metodlar, tavsiyalar haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: g'azal, bayt, interaktiv, qofiya, metod, Kahoot, Quiz, Gyote, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Abstract. This article provides information on methods and recommendations for teaching the ghazal genre to students in an easy and engaging way.

Keywords. Ghazal, couplet, rhyme, interactive, method, Kahoot, quiz, Goethe, Zahiriddin Muhammad Babur.

Kirish

Hozirgi kunda mumtoz asarlarni o'qish, tahlil qilish va undagi ma'noni o'quvchilarga to'liq yetkazib berish maqsadida turli usullardan foydalanib kelinmoqda. Jumladan, g'azal janrini o'qitishda, o'quvchilarda mumtoz asarlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishda interaktiv metodlar yaxshigina samara beradi. Turli o'yinlar orqali o'quvchilar g'azal janrini oson tushunadilar. So'nggi yillarda pedagogik jarayonda interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning diqqatini jalb qilish, mavzuni oson yodlash va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda samarali ekanligi isbotlandi. Ushbu maqolada g'azal janrini interaktiv metodlar orqali o'qitishning Maqolada ushbu janrni interaktiv metodlar orqali o'qitishning asosiy yo'llari va amaliy misollari ko'rib chiqiladi.

Dastlab interaktiv tushunchasiga izoh bersak. "Interaktiv" termini *inglizcha* interactive so'zidan olingan bo'lib, asosiy ma'nosi o'zaro ta'sir qiluvchi, ikki tomonlama aloqada bo'ladigan deganidir. Ya'ni dars yoki mashg'ulotda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda mashqlar bajarishi.

Xulosa qilib aytganda, "interaktiv"- bu faol o'zaro aloqani ta'minlovchi, ikki tomonlama jarayonni bildiruvchi tushuncha hisoblanadi.

Ma'lumki, adabiyot darsliklariga kiritilgan eng yetakchi janr g'azaldir. G'azal – o'zbek adabiyotining eng qadimiy va boy janrlaridan bir bo'lib, insonning ichki his

tuyg‘ularini, muhabbati va ayriliq, tabiat va hayotiy falsafani ifodalaydi. Maktab va oliy ta’limda g‘azalni o‘qitish nafaqat adabiy bilimni oshiradi, balki talabalarda badiiy tafakkur va estetik didni rivojlantiradi. G‘azal VI-VII asrlarda arab adabiyotida paydo bo‘lib, “*ishqiyye*”, “*ayollarga xushomad*”, “*muhabbat izhor etish*” degan ma’nolarni bildiradi. U mumtoz adabiyotda eng ko‘p qo‘llanilgan janr bo‘lib, G‘arb shoiri Gyotening ham e’tiborini qozongan “zarsal” degan janrga asos solgan. Ushbu janr X asrda fors adabiyotida rivojlanib Rudakiy uning go‘zal namunalarini yozadi. G‘azalni tahlil qilish, o‘quvchilarga to‘g‘ri yondashuvshlar asosida tushuntirish juda murakkab hodisa. Ushbu janrni o‘quvchilarga oson va qiziqarli bo‘lishida, dars sifatini yanada oshirishda quyidagi metodlardan foydalanish yanada samarali bo‘ladi.

Vizual va tasviriy usul - Rasm va illyustratsiya orqali tushuntirish. Har bir g‘azal mavzusini rasm bilan bog‘lab o‘quvchilarga ko‘rsatish. Masalan, *muhabbat, tabiat, ayriliq* mavzularini ifodalovchi rasmlar. G‘azaldan sarlavhalar va ularga mos turli rasmlar keltiriladi, o‘quvchilar rasmlarni g‘azallarning ma’nosidan kelib chiqib, mazmunga mos bo‘lgan qismi bilan birlashtiradilar. Ushbu metodni 11-sinf adabiyot darsligida berilgan Boburning g‘azallari misolida ko‘rib chiqamiz:

1. Xazon yaprog‘i yanlig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim.....




2. Xating aro uzoring – sabza ichinda lola.....

O‘quvchilar g‘azal ma’nosi bilan to‘liq tanishganlaridan keyin, ushbu metodni bajarish yaxshi natija beradi. Birinchi g‘azalda yetakchi g‘oya bu – ayriliq. Mumtoz adabiyotlarda ayriliq xazon, kuz predmetlari bilan ifodalanadi. Ikkinchi g‘azaldagi

asosiy mavzu – go‘zallikning o‘tkinchiligi hamda lolaning husni orqali dunyoning o‘tkinchi zavqlari haqidagi falsafiy o‘ylardir.

Diagramma yoki sxemalar. G‘azal tuzilishini - bayt, misra, qofiya va radifni diagramma va sxemalarda ko‘rsatish. Bu ayniqsa vizual o‘rganuvchilar uchun samrali hisoblanadi. Afzalligi: O‘quvchilar nazariy ma’lumotlarni ko‘rish orqali tezroq tushunishadi.

Sxema ko‘rinishi:



Bu o‘quvchiga g‘azalning ketma-ketlik va mantiqiy tuzilishini tez tushunishga yordam beradi.

Ovozli va eshitish orqali o‘rganish. G‘azallarni tinglash: Mashhur g‘azal ijrochilarining vokal ijrolarini tinglash.

Talaffuz va inotatsiya bilan o‘qish: Har bir baytni ovoz chiqarib o‘qish, ritm va ohangni his qilish. Masalan, Boburning O‘zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov tomonidan ijro etilgan “Lola” g‘azalini o‘quvchilar bilan birgalikda tinglash va ohang bilan o‘qish yoki kuylash. Afzalligi: musiqa va ritm bilan g‘azal tezroq yodlanadi va o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi

Baytga mos maqol tanlash orqali. Bu “Bayt – maqol” metodi deb nomlanadi, ya’ni o‘quvchilar bayt mazmunidan kelib chiqib ularga mos xalq og‘zaki ijodi bo‘lgan maqollardan mosini tanlashadi. Afzalligi: o‘quvchilarning aqliy tafakkurini rivojlantirishiga yordam beradi. Biz bu metodni Avaz O‘tarning maktab darslikligida berilgan “Har tilni biluv emdi” deb boshlanuvchi g‘azali misolida ko‘rib chiqamiz.

№	Baytlar	Maqol
	Xar tilni biluv emdi odama jondur, Til vositai robitai olamiyondur.	
	G‘ayri tilni say qiling bilgani, yoshlar, Kim ilm-u xunarlar bilonki ondin ayondur	
	Lozim siza har tilni biluv ona tilidek, Bilmakka oni g‘ayrat eting, foida kondur.	
	Ilm-u fan uyig‘a yuboringlar bolangizni, Onda o‘qug‘onlar bori yaktoyi zamondur.	
	Zor o‘lmasun onlar dog‘i til bilmay Avazdek, Til bilmaganidan oni bag‘ri to‘la qondur.	

1. Til bilgan el bilar. 2. Til bilgan yo‘lda qolmas. 3. Til bilganga ming tanga. 4. Til bilgan navkar – bol bilan shakar. Til bilmas navkar – obro‘yin to‘kar. 5. Baxt belgisi – bilim.

Yozma va ijodiy mashqlar. O‘z g‘azalini yozish: O‘quvchilar shoir g‘azallarini o‘qib, ma’nosiga tushunib o‘z uslublarida o‘z so‘zlarida g‘azal yaratadilar. Afzalligi: O‘quvchining ijodiy fikrlashi va tahlil qobiliyatini rivojlantiradi.

Texnologiya yordamida o‘rganish. Mobil ilovalarva online platformalar orqali: Kahoot, Quiz kabi o‘yinli testlar. Afzalligi: Raqamli ko‘nikmalar o‘quvchi motivatsiyasini oshiradi.

“Bayt – rasm” metodi. Har bir baytga mos rasmlar beriladi, o‘quvchilar rasmlar orqali qaysi baytga tegishli ekanligini topadilar. Afzalligi: Darsni yanada qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi va o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantirishiga yordamlashadi.

G‘azalga sarlavha qo‘yish. G‘azallarda odatda sarlavha bo‘lmaydi. O‘quvchilardan har bir baytga yoki butun g‘azalga mos nom toppish so‘raladi. Afzalligi: mazmunni aniq tushinishga, tahlil qilishga yordam beradi.

“G‘azal Pazli” metodi. Ushbu metodi bajarish uchun singan tuxumlardan foydalanamiz, ya‘ni yozuv taxtasiga qog‘oz shaklidagi singan tuxum shakllari yopishtiriladi, qog‘ozning ichida aralash tartibdagi g‘azal baytlaridan namunalar berilgan bo‘ladi, singan tuxum bo‘laklarini birlashtirish orqali o‘quvchilar g‘azal matnini tiklaydilar. Afzalligi: Bu metod orqali barcha o‘quvchilarning diqqatini darsga jalb qilish mumkin. Jarayon qiziqarli bo‘ladi, baytlar ketma-ketligini va mazmunni yanada yaxshiroq tushinishga yordam beradi.

Xulosa.

G‘azal janrini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning badiiy matnni anglash, tahlil qilish va undan estetik zavq olish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqot davomida qo‘llangan “G‘azal pazli”, “Baytlarni tiklash”, “Bayt – maqol”, “Bayt – rasm”, “G‘azalga sarlavha qo‘yish”, kabi interaktiv usullar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish, g‘azal baytlaridagi mazmuniy bog‘liqlikni aniqlash, obrazlar tizimini anglash va san‘atlarni topish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu esa an‘anaviy yodlash va quruq izoh berish usullariga nisbatan samaraliroq natija beradi. Interaktiv metodlar o‘quvchini darsning passiv tinglovchisiga emas, balki faol ishtirokchisiga aylantiradi. Guruhli va juftlikdagi ishlarda hamkorlik, tinglash, bir-birini tushunish, fikr almashish madaniyati shakllanadi. Shuningdek, o‘yin va ijodiy topshiriqlar o‘quvchida g‘azal o‘rganishga nisbatan qiziqish va motivatsiyani oshiradi. Baytlarni tartiblab tiklash, mazmuniy zanjirni tuzish, obrazlar xaritasini yaratish kabi faol jarayonlar o‘quvchilarning tafakkurini faollashtirib, g‘azalni chuqur va izchil o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, g‘azal janrini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini jonlantiradi, balki o‘quvchilarning estetik didi, ijodiy fikrlashi, mustaqil tahlil qilish qobiliyati va adabiy matnga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Interaktiv metodlar badiiy matnni o‘zlashtirishni yengillashtirib, dars samaradorligini oshiradi hamda g‘azal janrini o‘qitishda yangi pedagogik imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xliyeva D. G‘azal tahlil qilish metodikasi. – Toshkent: Bayoz, 2003.
2. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi (an’anaviylikdan zamonaviylikka) Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2020.
3. Boltaboev H. Mumtoz adabiyot tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – №3.
4. To‘xliyev B, Karimov B, Usmonova K. 11-sinflar uchun adabiyot darslik. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
5. Ahmedov S, Qo‘chqorov R, Rizayev Sh. 6-sinflar uchun adabiyot darslik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.

Inernet resurslari:

6. <https://tsull.uz>
7. <https://www.barokat.uz>
8. <https://www.scribd.com>